

ақылын, тапқырлығын мазаклап «Жарақты жаўды жайратқан сөз», «Тил қылыштан өткір» деген нақыллардың шығыуы тегиннен емес.

Тил менен ойлау – мийнеттің жемиси. Тил ойдың сыртқа шыққан көриниси, – деп К. Маркс бийкарға айтпаған. Адамның басында қандай ой тууылса да, егер оны жыйнақтап, ылайықты сөз бенен дәл бере алмаса, ол айтыушыға да, тыңлаушыға да түсиниксиз, гүнгирт, көлеңке болады. Тууры сөйлей билиу дегенимиз тууры ойлай билиу, ал ол логика менен этнолингвистиканың бирлигинен пайда болады.

Тил – мәденият пенен бирге раўажланатуғын нызамлы кубылыс. Уллы ойшылар хәм даналар өз дәуириңде сөз құдиретиниң тәрбиялық мәнисине айрықша дыққат қаратқан. Мысалы, Шығыстың классик шайыры Ә.Наўайы: «Ас дуз бенен дәмлі, суў муз бенен дәмлі, ал адамзат саналы сөзи менен сәнли» – деген болса, француз данышпан жазыушысы О.Бальзак: «Сөз өнери – өнердиң ең қыйыны хәм құдиретлиси», – деп атап өткен. Усы ойды тереңдеткен уллы шайыр Абай: «Сөз өнери дәрт пенен тең», – деген болса, Л.Н.Толстой: «Сөз – уллы нарсе. Сөз бенен адамларды досластыруға да болады, жаўластыруға да болады», – деп атаған.

Ал қарапайым қазақлардың нақыл-мақалларында да усы идеялар тийкарғы орынды ийелейди. Мәселен, «Таппасаң сөздиң жүйесин, отына өзиң күйесең», «Аңламай сөйлеген аўырмай өледі», «Ойнап сөйлесең де, ойлап сөйле», «Жүйели сөз жүйесин табар» деп, тууры ойлап, тууры сөйлеудің үлкен өнер екенін жас әўладқа нәсият етип отырған. Усыны жаслардың сана-

сына синдириуді әхмийетли санаған ата-бабаларымыз «Көп сөз – гүмис, аз сөз – алтын», «Ақыллының сөзи қысқа, көпке болар нұсқа». «Токсан аўыз сөздің тобықтай түйини бар» деп философиялық ой келтирилген.

Жасларды шешенликке, сөз өнерине үйретиу үшін ата-аналары, аталары менен апалары оларға нақыл-мақал, жумбақ, жаңылтпаш, терме, қосық-жыр ядлатып үйреткен. Ойын-тойда қызлар менен жигитлер бир-еки аўыз қосық пенен айтысып, айтысуыды әдетке айландырған. Сол айтыс түрлеринен жеңіс пенен көзге түскен адамларды көтермелеп, пүткіл аўылдың, руының, елдің атынан уллы дүбір тойларда сөзсайысына қосып, жеңген адамларды хошаметлеп, жорға мингизіп, шапан жапқан.

Жалпы, шешенлик қазақ халқының санасына питкен табиий қасиет екенлигин Шығысты изертлеуші алымдар да бақалай билген. Мысалы, академик В.В.Радлов өзиниң «Образцы народной литературы тюркских племен» деген темасының кирисиуінде аўыз-зеки әдебиятының шығыу тегине, тәлимлик мәнисине тоқтап: «Қазақлар нақыл-мақалды пайдаланған халда сөйлеуді бар өнердің алды деп билди, сонлықтан да олардың поэзиясы раўажланыудың жоқары шыңына жеткен» – деп атаған.

Қазақ аўыз-зеки әдебиятын дәретиушілер да, оны кәстерлеп ядында сақлаушылар да, келеси әўладты тәрбиялауда курал ретінде қолланушылар да шайыр-жыраулар болғанлығын, олар өзлериниң жыр ғезийнеси менен жаслардың сана-сезимин тәрбиялап жетилистириуде роли үлкен хәм әхмийетли.

Әдебиятлар

1. Қайдар Э.Т. Қазақ тилиниң өзекти мәселелери. –Алматы: 1998.
2. Кобланова А. Қазақ сөз этикети. –Алматы: 2001.
3. Кукушин В.С., Қалиев С. Этнопедагогика. Учебник. –Алматы: 2014.
4. Сейдин Әмирлан. Тамды туұралы ХХ әсир басындағы тарийхый дереклери.
5. Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. -М.: 1998.
6. Вербицкая А. Язык. Культура. Познание. -М.: 1996.
7. Лурья А.Р. Язык и сознание. -М.: 1979.
8. Тарланов З.К. Этнический язык и этническое видение мира. Язык и этнический менталитет. –Петрозаводск: 1995.

РЕЗЮМЕ

Мақолада Томди козқолари тарихиниң тадқиқ қилинишиға шарх берилиш билан бирға улар тилидағы хусусиятлар хақида атрофлича сўз боради. Тадқиқот объекти сифатида Томди тумани козқолари тилидағы ўзига хос хусусиятлар атаб ўтилади. Мақолада козқол адабиётиниң бебаҳо мерослари ва бой оғзаки ижоди кенг очиб берилади. Шунингдек, козқол тилиниң келажак авлодға соф холида етказилиши муҳим эканлиги мақолада алоҳида таъкидланади.

РЕЗЮМЕ

В статье подробно исследуется история казахов Тамдынского района наряду с обзором об их языковых особенностях. Объект исследования - особенности языка казахов Тамдынского района. В статье раскрывается бесценное наследие казахской литературы и богатое устное творчество. Отмечено важное значение, чтобы казахский язык передавался следующему поколению в чистом виде.

SUMMARY

The article provides a detailed study of the history of the Tamdi Kazakhs, as well as features in their language. The object of research is the peculiarities of the language of the Kazakhs of Tamdi district. The article reveals the invaluable heritage of Kazakh literature and rich oral tradition. It is also important that the Kazakh language is passed on to the next generation in its purest form.

HOFIZ XORAZMIY DEVONI TILIDA «QIZIL» SO‘ZINING SINONIMLARI VA ULAR VOSITASIDA HOSIL BO‘LGAN SO‘Z BIRIKMALARI

R.M.Madaminova – stajor-tadqiqotchi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so‘zlar: so‘z va so‘z birikmasi sinonimiyasi, qizil so‘zi yasama shakllari hamda leksik xususiyatlari, o‘z va ko‘chma ma‘nolari.

Ключевые слова: синонимия слова и словосочетания, формы словосочетания красное и её лексические свойства, собственный и переносный смысл.

Key words: synonymy of words and phrases, forms of the phrase red and its lexical properties, own and figurative sense of words.

Hofiz Xorazmiy Devoni tili leksikasi tarkibidagi rang bildiruvchi so‘zlar orasida *qizil* so‘zi ham ma‘nodoshlarining soni va ularning badiiy-poetik vazifa bajarishida boshqa so‘zlar bilan birikma hosil qilishiga ko‘ra ham alohida o‘rin tutadi.

Mazkur maqolada manba sifatida Hofiz Xorazmiy Devoni tarkibidagi g‘azallarda qizillik tushunchasini ifodalovchi so‘zlar va so‘z birikmalari tahlilga turtildi.

Xorazmiy Devoni tilida qizillik tushunchasini ifodalashda, asosan uch til o‘zbek, fors va arab tillari

elementlaridan foydalangan: *qizil, ol, surx, ahmar* kabi.

Shoir Devoni tilining o‘ziga xos leksik xususiyatlaridan biri, ko‘pgina so‘zlarning o‘z va ko‘chma ma‘nolarda qo‘llanilib, bunda ularning tub va yasama shakllari qo‘llangan: *gul, gulgun, gulrang, gulnor, gulruxsor, yoqut, jigaxun, la‘l, lola, lolarang, lolaruxsorim, may, maygun, ol, qon* va boshqalar.

Biz quyida “Devon”dagi *qizil* tushunchasini fodalovchi so‘zlar va ular vositasida hosil qilingan so‘z birikmalari haqida fikr yuritimiz.

Qizil soʻzi komponent sifatida qatnashgan soʻz birikmalari: *qizil qon, qizil yuz, qizil gul* va boshqalar. Masalan [1:39], [1:73], [1:32], [2:164]:

Toʻkdi **qizil** qonimni qora yerga laʼlingiz,
Qilma bahonavu ber oni xun bahosina.
Man bihil ayladim, ey jon, bu **qizil** qonimni,
Safha-yi gul uza koʻrguzgali san xatt-i barot.
Figʻonu nola qachon chakkay erdi bulbul-i mast,
Qizil yuzi bila qilmasa gul chamanda yuz ol.
Qizil gul ne sababdin rang bogʻladi gulistonda,
Magar dildorning ol englarin koʻrdiyu uftandi.

1) Ol vositasida yasalgan oʻzbekcha va fors-tojikcha soʻz birikmalari: *ol qonim, ol yangoqinggʻa, ol yuzi, ol yoqa, ol rangi, ol enginda, ol anglari, ol birla, ol labingdin, ol gul* va boshqalar. Masalan [1:37], [1:46], [1:102], [1:141], [1:173], [1:179]:

Ey turk, **ol** qonim uchun koʻzni qaro qilding yana,
Begonalargʻa lutf etib, sen oshno qilding yana.
Qaro zulfi ne turlu xush yaroshur **ol** yangoqinggʻa,
Qilib jonlarni barhamkim keturur koʻz qaroqinggʻa.
Lolau guldin aning **ol** yuzi zebodur.
Sarvdin qaddi base husnda ham raʼnodur.
Koʻrgali **ol enginda** qaro mangni oshiqi,
Ang-mang boʻlub kechar aro ming ihtiroz etar.
Koʻz yoshi boʻlsa **ol labingdin** ajab dagul,
Laʼling nishonasi chu aqiq-i Yamanda bor.
Koʻrguzur **ol gul** biki yuzini, Hofizo,
Chun bulbulinga vaʼda-yi hazor aylamak tilar.

3) Arabcha *ahmar* sifati vositasida yasalgan soʻz birikmalari *laʼli ahmartak, vard-i ahmar, boda-yi ahmar, yoqut-i ahmar, lola-i ahmar* va boshqalar. Masalan [1:112], [1:115], [1:116], [1:229]:

Qoʻlinda bodani koʻrgali raxshon **laʼli ahmartak**,
Jigarxun dogʻ birla togʻda laʼli Badaxshondur.
Ey sumanbar, gul yuzungtak **vard-i ahmar** qandadur,
Qaddi-i zebong ila tang sarvu sanovbar qandadur.
Jonim ichinda suchi labing soʻzlari mudom,
Jom ila toʻlu **boda-yi ahmar** dagulmudur?
Shakar birla guhar isor aylar,
Soʻz kelganda ul **yoqut-i ahmar**.

Hofiz Xorazmiy, bulardan tashqari bir qancha arabcha, fors-tojikcha leksik birliklarni “qizillik” maʼnosini anglatish uchun qoʻllagan. Ular ham koʻpgina soʻz birikmalarini hosil qilgan.

a) *gul* soʻzi oʻzining tub va yasama shakllari bilan soʻz birikmasi tarkibiy qismi sifatida kelishi: *guliston yuzlu, gul yuz, gulgun dagul, gulgun ashk, gulgun yuz, gulgun koʻz yoshi, gulgun rang, gulgun boda, guli raʼno, gulnor yuz, gulnor anglari, gulrang yuz, boda-yi gulrang, rux-i gulrangdin, sarv-i gulruxsordin, soqi-yi gulrux*. Shuningdek,

gul soʻzi fors-tojikcha izofalarda ham ishtirok etadi: *ashk-i gulgun, nigori-i gulandom, rangini gulgun, sarv-i gulandom, yoshi gulgunu, bodayi gulgun, anglari gulnor*. Masalan: [1:25], [1:36], [1:138], [1:151]:

Bulbul bu **gul yuzini** koʻrib yuz niyoz ila
Qildi hazor vasf gul-i boʻstonina.
Gʻamza-yi shoʻx bila bizga shabixun qilma,
Ashk chun ob-i ravon, **rangini gulgun** qilma.
Qaro jodu koʻzung ul damdaki, shabixun aylar.
Ashk-i xun ob-i ravon **rangini gulgun** aylar.
Soqiy, vaqti gul erur **bodayi gulgun** keltur,
Mutribo, changing tuzub nagʻma-yi mavzun keltur.

b) arabcha *laʼl* soʻzi yasama shakllari bilan oʻzbekcha va tub shakli bilan esa fors-tojikcha izofali soʻz birikmalarida komponent boʻlib keladi: *laʼli labing, laʼli gul, laʼli tovon, laʼli sharobi, laʼlu dur, laʼli durafshon, laʼli Badaxshon, may-i laʼlingdin, yoqut laʼlindin, boda-yi laʼlindin* va boshqalar. Masalan: [1:79], [1:79], [1:130]:

Xizr-i xating birla ul **laʼli labing**,
Zulmat ichra koʻrunur ob-i hayot.
Shakkarin **laʼli labingdin** munfail,
Boʻldi Misr ichra, base, qandu nabot.
Yuziyu **laʼli gul** bila muldin
Oshiqining koʻziga xushtar erur.

v) *otash* va *otashin* leksik birliklari quyidagi soʻz birikmalari tarkibida komponent boʻlib keladi: *otashin yuzung, otashin ob* va boshqalar. Masalan [1:88]:

Otashin yuzung uzra dona-yi xol,
Tegmasin koʻz teyu erur chu sipand.
yoki [1:97]

Otashin obni keltir manga, ey soʻfiy, sof,
Emdikim gul yuzidin doman-i sahro xushdur.

g) forscha *lola* soʻzi ham koʻchma maʼnosi bilan sof va yasama shakllari orqali “qizil” maʼnodoshlik uyasida komponent va grammatik tarkibi jihatidan u ham oʻzbekcha va fors-tojikcha soʻz birikmalari yasashda qatnashadi: *may-i lolarang, lolabu sunbulga, yuzi lolazor, lola yuzlu, lolaruxsorim, lola mengiz koʻz yoshi, yuzi lolazore, lolauzore, lolamengizlik sarvqomat* va boshqalar. Masalan [1:42]:

Ul **lola yuzlu** sarvqad gar mahram-i asror esa,
Tesun manga oshiqlarin ne turlu xush asror esa.
yoki [2:236]

Ol birla koʻngul aldagʻuchi **lola yangoqdin**,
Oltun yuz uza sochdi koʻzum laʼlu loli.

Hofiz Xorazmiy qizil, qizillik maʼnolarini bildiruvchi soʻzlar *lola* soʻz birikmalaridan unumli foydalangan. Shoir Devonida qizil, qizillik tushunchasini ifodalovchi oʻzbekcha, fors-tojikcha va arabcha leksik birliklar qatnashgan.

Adabiyotlar

1. Хофиз Хоразмий. Девон. 1-китоб. -Тошкент: Ўзбекистон КП Марказий Комитетининг нашриёти, 1981.
2. Хофиз Хоразмий. Девон. II китоб. -Тошкент: Ўзбекистон КП Марказий Комитетининг нашриёти, 1981.
3. Gʻ.Abdurahmonov, Sh.Shukurov, Q.Mahmudov. Oʻzbek tilining tarixiy grammatikasi. -Toshkent: Oʻzbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008.
4. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. -Т.: «Фан», 1983. 365-б.
5. Щербак А.М. Грамматика староузбекского языка. - Москва-Ленинград: 1962.

REZYUME

Mazkur maqolada Hofiz Xorazmiy “Devon”idagi **qizil** tushunchasini anglatuvchi soʻzlar va soʻz birikmalari muhokama etiladi. “Devon”da **qizil** tushunchasini anglatuvchi soʻzlar va soʻz birikmalari uchraydigan baʼzi gʻazallar qarang. Gʻazaldagi **qizil** tushunchasini anglatuvchi soʻzlar va soʻz birikmalarining lugʻaviy maʼnosi tahlil etilgan. Bunda **qizil** soʻzining turk, fors va arab tillaridagi muqobillar qoʻllanilishi koʻrsatib berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье анализируются слова и словосочетания, обозначающие понятие красный, в «Диван» Хафиза Хорезми. Рассмотрены некоторые газели из «Диван», в которых встречаются слова и словосочетания, обозначающие понятие красный. В газели анализировано смысловое значение слова и словосочетания, обозначающие понятие красный. При этом доказано, что слово **красный** употребляются в альтернативных формах тюркского, персидского и арабского языках.

SUMMARY

This article discusses the words and phrases, denoting the concept of Red. “Divan” of Hafiz Khorezmi. Divan’s some gazelles, in which there are words and phrases representing the concept Red, are considered. In the gazelle, the semantic meaning of the word and phrases representing the concept Red is analyzed. It is shown that the word **red** is used in alternative forms of the Turkic, Persian and Arabic languages.